

**GLOBAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT  
MADANIYATINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TADQIQI**

*Usmonova Mohizoda Avazjon qizi*

*Qo'qon DU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada global ta'lim muhitida talabalarning muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy asoslari va uning tadqiqi hususida ayrim fikr – mulohazalar bayon etilgan. Ma'lumki, Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha bo'lib, bu ta'riflarning umumiylik tomoni: integratsiya-bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit, bir butun ob'ekt sifatida qarashga erishishdan iborat

**Kalit so'zlar.** Integratsiya, kommunikativ qobiliyat, integrativ yondashuv, muloqot madaniyati, mazmun va mohiyat, rivojlantiruvchi funksiyalar.

**ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ  
ОБЩЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ГЛОБАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ  
СРЕДЕ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

*Усмонова Мохизода Авазжон кызы*

*базовый докторант Кокандский ГУ*

**Аннотация.** В данной статье представлены некоторые размышления о теоретических основах развития культуры общения студентов в глобальной образовательной среде на основе интегративного подхода и его исследовании. Как известно, определения понятия «интеграция» различны, но у этих определений есть одно общее: интеграция – это способность рассматривать окружающий мир как единое целое, как единый объект.

**Ключевые слова:** Интеграция, коммуникативная способность,

интегративный подход, культура общения, содержание и сущность, развивающие функции.

**THEORETICAL STUDY OF DEVELOPING STUDENTS'  
COMMUNICATION CULTURE IN A GLOBAL EDUCATIONAL  
ENVIRONMENT ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH**

*Usmonova Mohizoda Avazjon qizi*

*basic doctoral student of Kokand SU*

**Annotation.** This article presents some thoughts on the theoretical foundations of developing students' communication culture in a global educational environment on the basis of an integrative approach and its research. As is known, the definitions given to the concept of Integration are different, and these definitions have one thing in common: integration is the ability to view the world around us as a whole, as a single object

**Keywords.** Integration, communicative ability, integrative approach, communication culture, content and essence, developmental functions.

Integratsiya - ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-birlariga qo'shilishi hamda bir butunga aylanishi va yaxlit tizim bo'lishidir. M.G.Chepikov o'zining «Integratsiya nauki» kitobida integratsiya so'zi asosida integral yotishini asoslab bergan. Shu sababli biz integratsiya ta'riflariga to'xtalishni lozim topdik. «Integratsiya» atamasi nisbatan yangi bo'lib, mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga egadir. Integratsiya – juda keng ma'noli tushuncha. Bugungi kunga kelib, kishilar o'qitishda integratsiya jarayonining mohiyatini, uning rivojlantiruvchi funksiyalarining amalda qo'llanilishi, sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarni hal qilish va yerda hayotni saqlab qolish mumkinligini anglagan holda, unga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ayniqsa, yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini, ularning ekologik madaniyatini shakllantirishda, ta'limda

integratsiya jarayonining muhimligi dunyo olimlari tomonidan alohida qayd etilmoqda.

Ta'limda integratsiya – bilimlarning bir-biri bilan organik birlashishi va yangi, yagona barqaror umumlashgan - yaxlit bilimni hosil qilish degan ma'nolarni anglatib,umumlashtiradi. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha bo'lib, bu ta'riflarning umumiylik tomoni: integratsiya-bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit, bir butun ob'ekt sifatida qarashga erishishdan iborat. "Integratsiya" tushunchasi, bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan o'z qo'lyozmalarida qo'llanilgan

Integrativ yondashuvdan ta'lim-tarbiya ishining majmuaviy hal etilishi, ya'ni, uzviylik, politexnik va kasbiy yo'nalganlik, nazariya bilan amaliyotning birligi, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning o'sib borishi, ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini tahlil etish va shu kabilar ta'minlab beradi. Shunday qilib, ta'lim jarayoni nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, balki jamiyatda kattalar hayoti malakalarini, kelgusida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat va o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlay oladigan ijtimoiy-psixologik va kasbiy ahamiyatli yo'nalganlikni egallashni ham o'z ichiga ola biladi.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi. Ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha oloshni, muloqotga muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarning qiziqishlariga tengdoshlarining tajribasi ham asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki talabalar tengdoshlari bilan fikrlashganda, suhbatlashganda ko'rganlarini yoki kim bilandir bajargan biron bir faoliyatini aytib, tengdoshlarini natijaga qiziqtirishi mumkin.

Kommunikativ madaniyat - kommunikativ nutq madaniyati kishilar bilan erkin muloqot qilish imkonini beradi. U jamiyat tashqarisida yashashga qodir emas, chunki u bir ijtimoiy borliqdir. Kommunikativ kompetensiya quyidagi asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi[4]:

- ochiqlik darajasi;

- muloqot qilishda motivatsiya mavjudligi;
- umumiy mamadaniyat;
- nutq va til rivojlanishi;

Xushmuomalalilik - xarakterli xususiyat, uning asosiy mazmuni insoniy muloqotning turli vaziyatlarida muayyan xatti-harakatlar qoidalariga rioya qilish odati, odob-axloq qoidalariga rioya qilishdir[4].

O'qituvchilar fanlarni bir-biriga integratsiyalab o'tish jarayoni o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ko'plab ko'zga ko'ringan hal qilish biroz qiyin bo'lgan yoki shunaqa qiyindek ko'ringan va bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurgan tushunarsiz, ziddiyatli, qiyin va zerikarli, qiziqarsiz va boshqa ko'plab shunga o'xshash holatlardan halos bo'lish imkonini beradi. O'qituvchilar o'z darslarida integrativ yondashuv asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirar ekan, avvalo, o'zi kommunikativ shakllangan, integrativ dars ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi darkor[5]

Xulosa qilib ayatganda muntazam bilim olish va kasbiy kompetensiyalar mazmunini boyitish uchun bo'lajak o'qituvchilarning muomala odobini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarni loyihalash, tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning muomala madaniyatini rivojlantirish maqsadida kasbiy kompetensiyalar mazmunini boyitish ehtiyojining vujudga kelganligi nutqiy muloqotni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytirdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi —Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni.
2. <https://journals.plos.org/plosone/article?id=10.1371/journal.pone.0182210#abstract0>
3. XXI asr o'quvchisi uchun zarur ko'nikmalarini o'rgatuvchi model – 4K haqida (kun.uz)
4. Рубинштейн Л. Проблемы общей психологии – 2-е изд. – М., 1976. – 152 с.
5. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – М.: Просвещение, 1985. – 160 с.